

BUXORO VILOYATI BOLALAR KUTUBXONASI
USLUBIY BO' LIM

MUHIM VA UNUTILMAS SANALARGA ATAB OMMAVIY
TADBIR SSENARIYLARI

(Metodik tavsiya)



BUXORO - 2026

78.342

M 55

Uslubiy bo'lim tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi M.Akramova

Muharrir D.Muqumova

Muhim va unutilmas sanalarga atab ommaviy tadbir ssenariylari: Metodik tavsiya./ Buxoro viloyati Bolalar kutubxonasi; Tuzuvchi M.Akramova; Muharrir D.Muqumova, 2026.- 22b.

KBK 78.342

Ushbu metodik tavsiyada umumta'lim maktablari kutubxonalarida 14-yanvar "Vatan himoyachilari kuni", 8-mart – "Xalqaro xotin-qizlar bayrami", 21-mart – "Navro'z" umumxalq bayramiga atab o'tkazilishi mumkin bo'lgan ommaviy tadbirlar o'rin olgan.

Maktab kutubxonachilari ommaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda foydalanishlari mumkin.

SO‘Z BOSHI

Kutubhonalarda kitobni targ'ib qilish, kitobxonlarni kutubxonaga jalb etish, hamda ularni adabiyot va san'at turlarining hayoti va ijodi bilan tanishtirish, muhim va unutilmas sanalar, davrning faol ahamiyat kasb etgan voqea-hodisalari munosabati bilan ko'pgina tadbirlar tashkil etiladi.

Kutubhonalarda adabiyotlarni targ'ib etishda ijtimoiy usullar – ko'rgazmali, o'zaki va kompleks usullarni qo'llash. Ular mazmuni, nashr xususiyati va boshqa xususiyiyatlarga ko'ra kitob ko'rgazmalari, adabiy va madaniy-ma'rifiy kechalar, uchrashuv, shariat kechalari, viktorina va boshqa tarkibdan iborat bo'lishi mumkin.

Ommaviy tadbirlarning afzallik tomoni shundaki, ushbu tadbirlar kitobxonlarning umumiy qiziqishlarini tezda qondirish imkoniyatini beradi. O'kaziladigan har qanday ommaviy tadbirga avvaldan puxta tayyorgarlik ko'rilgandagina samara beradi, ta'sirchan bo'ladi va aniq maqsadga xizmat qiladi. Natijada kitobxonlar soni oshadi, mavzu bo'yicha kitob o'qilishi darajasi ko'tariladi, yangi qiziqishlar payo bo'ladi. Kutubxonaga va tadbirlarga munosabat o'zgaradi. Ommaviy tadbirda texnika vositalarini qo'llash, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, OAVlari bilan hamkorlik qilish, uning sifat va darajasini ko'taradi, ommaviylik xususiyatini oshiradi.

Tadbirlarni o'tkazayotgan mutaxassislar shuni unutmasliklari kerak-ki, har qanday tadbirda kitob o'qishni targ'ib etish birlamchi o'rinda bo'lishi kerak.

Dolzarb masalalarga va kerakli narsalarni unutilmas sanalarga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalaridan kutubxonalarda keng foydalaniladi.

Kitob ko'rgazmasi mazmuniga qarab-universal, mavzuli; Vaqti-vaqti bilan – doimiy, o'z vaqtida, uzoq davom etayotgan vaqt; xarakterga qarab-axborot, targibot shaklida bo'ladi.

Xususiyati: ko'rgazmalilik, ommavilik, ta'sirchanlik, estetik zavq berish, hujjatni o'zlashtirishga yordam berish, tozalashdan tanib chiqish imkonini kengligi.

Ahamiyati: hujjatga qiziqish uyg'otadi, mavzuga qiziqarli uyg'otadi, hujjatni targ'ib qilib, estetik ruhda tarbiyalaydi, kitobxonning fikr doirasini kengayishadi.

Kitob ko'rgazmasi ommaviy tadbirlarni o'tkazishda yaxshi samara beradi.

Metodik tavsiyada berilgan tadbir ssenariylari turli manbalardan olingan. Umid qilamizki ushbu tavsiya kutubxona xodimlariga yaqin ko'makdosh bo'lib qoladi.

MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

(14-yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan tadbir ssenariysi)

Sahna mavzu yozilgan baner, kitoblar vistavkasi hamda gullar bilan bayramona bezatilgan.

Zal va sahna bayramona bezatilgan. Zalning bir tomonida bukletlar, “Vatan himoyasi muqaddas burch!”, “O‘zbekiston o‘g‘lonlari”, “Harbiylar hayotidan” kabi sarlavhalar ostida fotoko‘rgazma tashkil etilgan. Bayram tantanasiga hokimiyat, xalq ta’limi xodimlari, harbiy faxriylar va xizmatchilar, askarlar va ularning yaqinlari, mahalla fuqarolar yig‘ini faollari, faxriy ustozlar va ota-onalar taklif etiladi.

Davlatimiz madyiyasi yangraydi.

Sahnaga boshlovchilar chiqib keladilar.

1-boshlovchi: Assalom, ey olam, feruza osmon,
Aziz ustozlar-u, aziz mehmonlar.
Kamtarin davrada bugun mehmonsiz,
Sizga ehtirom-la egikdir boshlar.

2-boshlovchi: Assalom azizlar, do‘st-u yoronlar
Ma`rifat ziyosin nurga taratgan,
Oltin boshingizda Humo qush ko‘rdik
Ulug` anjumanda Sizni xush ko‘rdik.

1-boshlovchi: O‘tkir ko‘zli lochinlari,
Ko‘zday asrar sarhadlarin.
Uyda kutar Barchinlari,
Alpomishu Farhodlarin.
Qaddi baland osmonlari,
Ona Vatan posbonlari.

2-boshlovchi: O‘zbeginning nomus, ori
Oriyatli askarlari.
Momolarim iftixori
Burgumisol shunqorlari.
Toza vijdon, iymonlari,
Ona Vatan posbonlari.

1-boshlovchi: Assalomu-alaykum hurmatli ustozlar! Qadrli mehmonlar!

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tadbirimizni ochiq deb e’lov qilamiz

1-boshlovchi: 1992-yilning 14-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risda”gi qarori asosida O‘zbekistonning o‘z Qurolli Kuchlari tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 29-dekabrda “Vatan himoyachilari kunini belgilash to‘g‘risi”dagi qonuniga binoan, 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni”, - deb e’lon qilindi.

2-boshlovchi: Mustaqillik yillari Yurtboshimiz tashabbusi bilan amalga oshirayotgan harbiy islohotlar jarayonida qisqa muddat ichida O‘zbekistonda mamlakatimiz xafsizligi va tinchligimiz barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga har jihatdan qodir bo‘lgan, zamonaviy, eng yangi qurol-yarog‘lar va harbiy texnika bilan ta’minlangan, mutlaqo yangi milliy armiyamiz vujudga keldi.

1-boshlovchi: Uning zamirida xalqimizning ming yillar davomida shaklangan qadimiy an’ana va qadriyatlari, buyuk ajdodlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurning Vatanga bo‘lgan muhabbati va yurtga sadoqati mujassamdir.

Biz milliy armiyamiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

2-boshlovchi: Bugungi qutlug‘ ayyom bilan tabriklash uchun ilk tabrik so‘zini direktorimiz, Muhayyo Xiderovnaga beramiz. Marhamat Uztoz.

1-boshlovchi: Kattakon raxmat tadbirimizga tashrif buyurganingiz uchun

2-boshlovchi: Keling endi davramizni bir qizdirib olsak.

1-boshlovchi: Endigi navbatni Javohir, Xasan va Xusan ijrosidagi ajoyib bir musiqa bersak.

2-boshlovchi: O‘zbekiston chaman diyor,

Yashnar bog‘u bo‘stonlari.

“Oq oltin” mo‘l-ko‘l, bisyor,

Qo‘riqlaydi o‘g‘lonlari,

Ona Vatan posbonlari.

2-boshlovchi: Endigi navbatni 7-“V” sinf o‘quvchilari ijrosida ‘Bir Korrupsiyaga Qarshimiz’ nomli sahnaga ko‘rinishga beramiz.

1 -boshlovchi:

Biz uchun eng aziz dunyo o‘zingsan,

Oy-u quyoshimiz, Zuhro o‘zingsan,

Muqaddas Ka’ba-yu Rumo o‘zingsan,

Muhrimda porlagan humo o‘zingsan.

Qalbimiz qa’rida shu o‘tli nido;

Vatanga jonni biz eturmiz fido!

2-boshlovchi:

Vatan sajdagohsan, bizga muqaddas,
Vatan martabasi baland, zabardast,
Ko‘zday asragaymiz seni har nafas,
Insoniy ilmdan oldik senda dars.
Jon gavhari bildik seni jon ichra,
Abadiiy ravnaq top, shu iahon ichra!

1-boshlovchi: Keling endi bir davramizni qizdirib olsak

2-boshlovchi: 7-“A” sinf o‘quvchisi Fazliddinov Shoxjahon ijrosidagi Vatan himoyachilariga bag‘ishlangan qo‘shiqqa bersak. Qa’ni marhamat!

1-boshlovchi:

Salom, sizga, eng oily kalom,
O‘zbekiston mard posbonlari!
Sizga ta’zim, sizga ehtirom,
Ey bahodir, pahlavonlari!

2 – boshlovchi:

O‘z izmida hushyor hamisha
Ezgu ishga safarbar sherlar!
Eyr –u osmon, tog‘, davon osha
Mard –u maydon muzaffar erlar!

2-boshlovchi: Aziz mehmonlar zerikib qolmadingiz degan umiddamiz

1-boshlovchi: Endigi navbatni 7-A sinf o‘quvchilari ijrosidagi kichik bir sahna ko‘rinishiga bersak. Marhamat!

2-boshlovchi: Ho’sh aziz do’stlar mana tadbirimiz o‘z kulminatsiyon nuqtasiga yetib qoldi

1- boshlovchi: tadbirimiz so‘ngida keling bir ajoyib kuy bilan yakunlasak

2-boshlovchi: Endigi navbatni musiqa to‘garak qanashchisi Asadbek ga bersak. Marhamat!

1- boshlovchi: Shuning bilan Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlab tayyorlangan tadbirimiz o‘z nihoyatiga yetdi.

E’tiborlaringiz uchun tashakkur! Doimo sog’ - omon bo’linglar!

“SEN AZIZ VA MUQADDASSAN AYOL”

(8-mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni”ga atab tadir ssenariysi)

Maqsad: 8-mart-“Xalqaro xotin-qizlar kuni”, uning yer yuzida bayram qilinishi haqida, onajonlarimiz dunyodagi eng ulug‘ zot bo‘lib, olam ayol tufayligina mukammal ekanligi to‘g‘risida ma’lumot berishdan iborat

Sahna bayramona bezatilgan. Sharlar va rang-barang gullar sahnaga o'zgacha chiroy bag'ishlagan. Sahna to'rida ona va bolaning bir-biriga mehr bilan intilishi tasvirlangan rasmlar kartina ilib qo'yilgan. O'quvchilar bayramona milliy liboslar kiyishgan. "Ayol-dunyodagi eng ulug' zot" "Ayol qadam qo'ygan eshikka avliyolar chiroq yoqar ekan", "Ayol bosh qo'ygan bolishga farishatalar sajda qilar ekan" kabi hikmatlar bilan sahna yanada ko'rkamlashgan.

Tadbir o'qituvchining kirish so'zi bilan boshlanadi.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz ustozlar, qadrlar ota-onalar, hurmatli o'quvchilar!

Hammangizga ma'lumki, ayol dunyodagi eng mo'tabar va muqaddas zotdir. Dunyoni ayolsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayol bir qo'li bilan beshikni tebratsa, bir qo'li bilan dunyoni tebratadi.

Bugungi shodiyona bayram ham ayol tufaylidir. Azizlar! 8-mart qachondan boshlab Xalqaro xotin-qizlar kuni sifatida nishonlanishini bilasizlarmi? Yo'q deysizlarmi? Bo'lmasa, eshiting.

Nishonlanadigan har bir sananing o'z tarixi bor, albatta. Nega har yili bahorda 8-martni xalqaro bayram sifatida keng nishonlaymiz? Ayniqsa, ayollarimiz bu bayramni intiqlik bilan kutishlarining sababi ne?

Hammasi 1857-yilning bahoridan boshlangan. Nyu-Yorkda to'qimachi ayollar Manxettin ko'chalarida bo'ylab "Bo'sh kastryulkalar marshi" bilan o'tishadi. Ular oylik maoshlarini oshirish, mehnat sharoitini yaxshilashni va ayollar teng huquqliligini talab qilib chiqishadi. Bu gayrioddiy voqea katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Uni "Ayollar kuni" deb atay boshlashdi.

Oradan 50 yil o'tib, 1908-yilning fevralida minglab ayollar yana Nyu-York ko'chalarida namoyishga chiqishdi. Bu namoyish ham yuqoridagi "Ayollar kuni"ga to'g'rilangan edi. Ayollar saylov ovozi talab qilishdi, ayniqsa, bolalar mehnatiga qarshi norozilik namoyishi uyushtirildi. 1910-yilda teng huquqlilik tarafdorlari butun dunyo bo'ylab "Ayollar kuni"ni o'tkazishadi. Keyinroq xuddi shu yili AQSH da Kopengagenga ikkinchi xalqaro konferensiyaga delegat ayollar jo'naydi va shu yerda germaniyalik inqilobchi ayol Klara Setkin bilan uchrashadilar.

Anjumanda Klara Setkin ayollarni aniq bir kunni belgilab olishlari va shu kuni o'z talablariga umumjamiyat diqqatini qaratish baravarida "Ayollarning huquqlari uchun kurashish kuni" ni ta'sis etish, har yili ma'lum bir sana ayollar kuniga bag'ishlanishi taklifi bilan chiqqan edi.

Dunyoning 17 ming mamlakatidan kelgan 100 nafardan ziyod ayollar bu taklifni qizg'in ma'qullashadi. Sababi o'sha vaqtlarda ayollarning huquqlari cheklab qo'yilgan edi. Ular zavod va fabrikalarda erkaklar bilan teng 16 soatlab ishlasalar-da, erkalar oladigan oylik maoshning teng yarmiga ega bo'lishgan. Saylov huquqi ularda umuman bo'lmagan. Klara Setkinning dunyo bolalariga teng huquqlilik uchun kurashga chaqiriq bo'lib yangragan bu sa'y-

harakatlari besamar ketmadi. Shu tariqa Xalqaro xotin-qizlar kuniga asos solingan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Biroq shu kuni aniq bir sana belgilanmadi. 1914-yil 8-martga qadar bu bayram Yevropa shaharlarida turli sanalarda nishonlangan. 1914-yildan boshlab, Xalqaro xotin-qizlar kuni ilk bor 8-martda bayram qilingan. Chunki 8-mart yakshanba - dam olish kuniga to'g'ri kelgan. Shundan keyin har yili bu bayram 8-mart kuni nishnonlanadigan bo'lgan.

Barchangizni bugungi qutlug' bayram – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin ko'ngildan tabriklayman. Hamisha sog'-salomat bo'lib, bahor gullariday ochilib yuringlar. Ollohim, barchangizga uzoq umr ato etsin! Har kuni davlat eshigingizdan kirib, omad ortingizdan chopqillab yursin!

(Sahnaga boshlovchilar kirib kelishadi).

I boshlovchi:

Bu kun o'zgachadir jilvayi olam,
Bu kun o'zgachadir borliqda xanda.
Bu kun ko'zlarimga hatto quyosh ham
Shafaq gulshanida tarang chirmanda.

II boshlovchi:

Bugun shunday quvonch, shunday shodyona,
Bugun quvonchlarga to'lar bu jahon.
Tonggacha yangrasin kuy, qo'shiq, navo,
Bayramingiz muborak, aziz onalar!

I boshlovchi: Assalomu alaykum, qalbi nurli saxovatga to'la, mehri daryo uztozlar hamda hurmat va ehtirom ila ushbu dargohga tashrif buyurgan munis onajonlar-u mehribon opa-singillar! Mana, o'lkamizda o'zining ajib bir sehri bilan bahor fasli ham o'z sepini yoymoqda. Sizlarni o'z husni- tarovati ila o'ziga maftun qilayotgan bahor oyining ilk bayrami- 8-mart- Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan muborakbod etamiz.

II boshlovchi: Bugungi bayram tadbiri har birimiz uchun ulug' va tabarruk siymo bo'lgan onajonlarimizga bag'ishlangan.

(Sahnaga 5 nafar o'quvchi chiqadi).

1-o'quvchi:

Salomdan boshlanar hurmat - ehtirom,
Salomdir dunyoda eng ulug' kalom,
Ey aziz, mehribon, dono ustozlar!
Avvalo, sizlarga
Hamma: Salom – assalom!

2-o'quvchi:

Dunyo beshigini ijod aylagan,
O'sha mo'tabar zot ayoldir, ayol!
Barcha odamzodni bunyod aylagan,
O'sha tabarruk zot ayoldir, ayol!

3-o'quvchi:

Avliyo, anbiyo, payg'ambarlarni,
Olum-u fozil-u chahoryorlarni,
Jamiki siz-u biz insonlarni
Dunyoga keltirgan ayoldir, ayol!

4-o'quvchi:

Ayol farzandidir barcha insonlar,
Dunyoni so'ragan shoh-u sultonlar
Poyiga bosh urar xon-u hoqonlar,
Chunki bunyodkori ayoldir, ayol!

5-o'quvchi:

Oллоh mo'jizasi, mohisan ayol,
Shodlik malikasi, shohisan ayol,
Buyuk- buyuklikda sening tenging yo'q,
Olamning baxtisan, tojisan ayol!

I boshlovchi: Bugun maktabimizda onajonlarimiz bayrami tantanali tarzda nishonlanmoqda. Avvalo, bugungi tantanamizga

Hamma: Xush kelibsizlar!

Olima: Ayol-ona va sevimli yor, qondosh opa yoki singil.

Zafar: Bola tarbiyachisi,

Nodira: Ayol- go'zallik, nazokat sohibasi.

Karim: Ayol borki, dunyo o'z muvozanatini saqlab turadi.

Lola: Ayol- quyoshni uyaltiruvchi taftli mehr.

Javohir: Ayol-tog'larni dog'da qoldiruvchi cheksiz g'urur va bardosh.

Kumush: Ayol - najot farishtasi.

Nodir: Uning allasi oldida dunyoning bor go'zal ohanglari o'zligini yo'qotadi.

Vasila: Uning go'dagi boshidagi bedorligi qarshisida oy-u yulduzlar ham nigohlari tinib, oxiri tong chog'i taslim bo'ladi.

II boshlovchi: Hayot nima uchun munavvar? Ishoning, onajonlar, dunyoda Siz borligiz uchun! Siz tufayli charog'on, go'zallikka limmo-lim!

Siz, azizlar, yuraklarga quvonch, shodlik ulasharsiz, shuning uchun biz sizlarni yaxshi ko'ramiz, ardoqlaymiz, ko'klarga ko'taramiz.

I boshlovchi: Bugungi davramizga hurmatli o'qituvchilarimiz, aziz otalarimiz va mehmonlarimiz tashrif buyurishgan. Ularga tabrik so'zlarini bersak. Dastlabki tabrik so'zini maktabimiz direktoridan eshitsak.

II boshlovchi: Rahmat, ustoz, ishlaringizga rivoj, omad yor bo'lsin!

I boshlovchi: Azizlar, hozir ijro etiladigan "Lazgi" raqsini bayram tabrigi sifatida qabul qilgaysiz. ("Lazgi" raqsi ijro etiladi).

II boshlovchi: Ayol! Bu so'z jaranglashi bilan ko'z oldimizga guldanda-nafis, jannat gullarining iforlarini eslatuvchi nozik bir xilqat- farishta namoyon bo'ladi. Ayol bor xonadon farishtali, nurlidir.

I boshlovchi: Ayol - dunyodagi tengi yo'q ulug' zot. Aytishlaricha, u bosh qo'ygan bolishga farishtalar sajda qilarkan.

II boshlovchi: Ayol qadam qo'ygan eshikka avliyolar chiroq yoqar ekan.

I boshlovchi: U aytgan alladan xudolar oyat to'qirgan, ular allalarida bolalariga butun mehrlarini qo'shib aytisharkan.

Qadim zamonlarda bir kelin bo'lgan ekan. U farzand ko'ribdi-yu, ammo bolalari birin-ketin nobud bo'laveribdi. Uchinchi farzandi tug'ilganda, u bor alamlarini qo'shib, alla aytibdi. Shunda go'dak chinqirab yig'lashdan to'xtabdi. Alla ta'sirida bolaning joni omon qolibdi. Shundan buyoyon onalar go'daklariga alla aytib uxlatishar ekan. Alla ana shunday sehrli qo'shiqdir. Hozir qizlarimiz ijrosida "Alla" ijro etiladi.

("Alla" ijro etiladi).

II boshlovchi: Ayol bosgan qadamlar o'rnida poklik chechaklari unadi. Shu bois ham "Jannat onalar oyog'i ostidadir" deya takalluf etiladi.

I boshlovchi: Shoirga yo'l bo'lsin, sizni chizay deb,

Bo'yoq quyultirib turar rassomlar.

Mukammal husningiz yog'dusi uchun

Oy ham navbatchilik qilar oqshomlar.

II boshlovchi: Shoirga yo'l bo'lsin, kuylay deb sizni,

Bastakorlar yurar yoqachok, tajang.

Torni temirchiga topshirvoqgudek

Har jarang ustida qilar necha jang.

I boshlovchi: Aziz onajonlar, sizni ta'riflash uchun dil so'zi-yu, qalam kuchi ojiz. Ona - buyuk allomarimizning beshigini tebratgan mehribon, buyuk zahmatkash zot. Quyosh saxiylikni, dengiz tiniqlikni, tog'lar ulug'vorlikni, osmon kenglikni, bahor latofatni, gullar tarovatni, chashmalar poklikni Sizdan o'rgansin! ("Onajonim" qo'shig'i ijro etiladi).

1-o'quvchi: O'zingiz umrning avvali, boshi,

Farzandlar qalbining porloq quyoshi,

Hayot chamanining mohir naqqoshi,

O'zingiz azizsiz, aziz ayollar.

2-o'quvchi: Sizsiz bu dunyoning sodiq bekasi,

Bu go'zal olamning Sizsiz egasi,

Sheryurak mardlarning sevgan erkasi,

O'zingiz azizsiz, aziz ayollar!

3-o'quvchi: Alloh asli sizni suyub yaratmish,

Qalbingizga mehrni quyib yaratmish,

Go'zal qilib sizga ko'pni qaratmish,

O'zingiz azizsiz, aziz ayollar!

4-o'quvchi: Bahor asli sizning ko'nglingizdadir,

Sadoqat va vafo yo'lingizdadir,

Dunyoning beshigi qo'lingizdadir,

O'zingiz azizsiz, aziz ayollar!

5-o'quvchi: Bu foni dunyoning jannati Sizsiz,

Dunyo dunyo emas, gar qolsa sizsiz,

Olamni bor qilgan hayotbaxsh kuysiz,
O'zingiz azizsiz, aziz ayollar!
6-o'quvchi:Sizga chin yurakdan baxtlar tilayman,
Iqboldan tojlar-u taxtlar tilayman.
Ayol bo'lganumchun shukur qilaman,
O'zingiz azizsiz, aziz ayollar!

II boshlovchi:Endigi tabrik so'zini ota-onalar qo'mitasi raisidan eshitsak. Ota-onalar qo'mitasi raisi: Aziz onajonlar! Hammangizga ma'lumki, quyoshsiz yoruq'lik ayolsiz esa muhabbat yo'qdir. Onasiz inson ham, qahramon ham dunyoga kelmaydi. Ona har birimiz sig'inadigan mabudadir. Ona bola uchun havo, suvdek zarurdir. Barchangizni bu bayram bilan qutlayman! Oqqushlarni vafodor deb, maqtashadi, bulbullarni gullarning mahliyosi deyishadi. Dunyodagi jamiki narsa, vafodorlikni Sizdan o'rgansin.

I boshlovchi: Rahmat, otaxon, ishlaringizda rivoj tilaymiz.
(“Onam derman” ashullasi ijro etiladi).

II boshlovchi:Ona dunyodagi o'zi kabi ulug' siymolarni qoldirgan buyuk zotdir.

I boshlovchi: Samarqand shahrini qadimiy deyishadi, uning 2500 yillini tantanali tarzda nishonladik. Dono kishilar savol bermishlar:

1-o'quvchi: Hoy,yoshi tarixing tubiga tutashgan Samarqand! Navoiy va Ulug'bek kabi siymolarni yaratgan sen emasmi?

2-o'quvchi:Yo'q, yo'q, ularni onalar yaratgan.

1-o'quvchi: Hoy, Sharqning ko'hna kitobi, bunchalar donishmandlikni qayerdan olding?

2-o'quvchi: Nuroniy onalardan.

1-o'quvchi: Hoy,ona shahar, farzandingman, seni madh etmoqchiman.

2-o'quvchi: Farzandim bo'lsang, meni emas, onalarni madh et.

Ha, onalarni madh etaylik. (“Olamni asrang,do'stlar!” ashulasi ijro etiladi).

II boshlovchi:Endigi tabrik so'zini _____ eshitamiz:

Qadrli onajonlar! Men ham sizlarni bayram ila tabriklayman. Onajonlar!Siz Olloh mo'jizasidir. Buyuklikda sizning tengingiz yo'q. To'g'ri, ayollardan payg'ambarlar yetishib chiqmagan. Onalar payg'ambar bo'lishdan ko'ra,uning onasi bo'lishni afzal ko'rishgan. Sizning madhingizni kuylash har birimiz uchun sharaftir.

Onajon!Bu galgi yurak so'zimni,

Senga bag'ishladim,

Senga azizim!Qaniydi,

Tabiat qo'lidan kelsa,

Abadiy etolsa, sening umringni!

Roziydim, onajon! Iloji bo'lsa –

Senga qo'shib bersa, mening umrimni.

Bir kechalik allang hurmati uchun,

Yuz yillik umrimni bag'ishlasam kam.

Ko'chirsam,

Qalbingga qalbimning kuchin.
Qarzim uzolmasman, qolur shunda ham.
Mabodo!
Bo'lsaydim zo'r haykaltarosh,
Senga yuragimdan yasardim haykal.
Yo agar bo'lsaydim mo'yqalam, naqqosh,
Surating chizardim berib ming sayqal.
Oralab qolibdi sochlaringda oq,
Ol mening sochimning qoralarini.
Tishlaring tushibdi!
Xo'rsinma, biroq
Ol mening tishlarim saralarini
Xiralashib qolmish ko'zlaringda nur
Ko'zlarim nurini olgin, mehribon!
Roziman!
Xizimating qilsam bir umr
Yuragim qo'rini olgin, onajon!

Iboshlovchi: Rahmat, sizga, akajon. Ishlaringizga baraka tilaymiz,
Onajonlarimiz baxtiga hamisha sog' bo'ling ("Tanovor" raqsi ijro etiladi).

Munira: Olloh mo'jizasi, naqshisan ayol,
Quvonch malikasi, taxtisan ayol,
Buyuk-buyuklikda sening tenging yo'q,
Bu yorug'olamning baxtisan ayol!
Laziz: Yarmi ayol erur insoniyatning,
Ayollar yaratmish qolgan yarmin ham,
Ayol yarmi erur ushbu hayotning,
Unga baxsh etadi qolgan yarmin ham.
Anvar: Dunyoning quyoshi bo'lsangiz porloq,
Oyi ham o'zingiz sohibjamollar!
Olloh joiz desa, o'zidan so'ngroq,
Bizga sajdagohsiz, aziz ayollar!

NAVRO'Z BIRDAMLIK BAYRAMI!

(21-mart – “Navro‘z umumxalq bayramiga atab tadbir ssenariysi”)

Sahnada bahor tarovatini ko'z-ko'z etuvchi manzara aks ettirilgan. Uzoq-uzoqlardan bulbul, sa'va kabi qushlarning xonishi eshitiladi. Ariqlarda suvlarning jildirab oqayotgani, qiyg'os ochilgan gullarning tasviri, ko'm-ko'k qiradirlar, purviqor tog' manzaralari, gullagan dov-daraxtlarning chiroyi zalda o'tirganlarga bahoriy kayfiyat, ko'tarinki ruh baxsh etadi.

(Sahnaga jarchi chiqib keladi, barchani Navro'z sayliga chorlaydi).

Jarchi:

Odamlar-u odamlar,
Bog'da bitgan bodomlar!
Eshitmadim demanglar,
Navro'zni olqishlanglar,
Sayldan kech qolmanglar!
 Bozorlar bo'lsin to'kin,
 Xalqimiz eksin ekin,
 Hunarmand-u kosiblar,
 Chevar-u holvagirlar,
 Barcha-barchangiz bu kun,
 Sayldan kech qolmanglar!
 Tun-u kun tenglashadi,
 Hamma bir muchal oshadi,
 Baxt keltirsin yangi yil,
 Sevinchlarga to'lsin dil,
Sayldan kech qolmanglar!

(Jarchi bir aylanib, sahnadan chiqib ketadi. Sahnaga birin-ketin suxandonlar kirib kelishadi).

1-boshlovchi:

Assalom, ona yurt, tonglar o'lkasi!
Ta'rif-tavsifingningyo'qnihoysi.
Sengabag'ishlanurmuqaddasqo'shiq.
Buo'zbekeliningo'zmadhiysi.

2- boshlovchi:Yana ko'k tubida sayraydi qo'shiq,
Yana ko'hna zamin yam-yashil ko'rpa.
Yana tandan ketdi mudrash-u tushlar,
Yana yoshdek dilda o'ynar ming turfa.

1- boshlovchi:Tarixing, ta'rifing tillarda doston,
Quyosh charaqlaydi, moviydir osmon,
Hofiz qo'shiq aytar, raqs etar jonon,
Sevinch bag'ishlaysan, keksa-yu yoshga,
Navro'zjon, bu yilgi kelishing boshqa.

2- boshlovchi:Bir yon katta kurash, bir yon ko'pkari,
Askiya, aytishar, o'lanlar bari.
Yangalarning aytgan avjli yor-yori,
Sevinch bag'ishlaysan keksa-yu yoshga
Navro'zjon, bu yilgi kelishing boshqa!

1- boshlovchi: Assalomu alaykum, fan bog‘ining bog‘bonlari, mehribon ustozlar hamda ilmga chanqoq o‘quvchi-yoshlar! Yurtimizga o‘zining zarrin sepini yoyib, husn-u tarovatini ko‘z-ko‘z qilib, fasllar kelinchagi – Bahoroy kirib keldi.

2- boshlovchi:Ha, bahor-uyg‘onish, yasharish fasli. Bu faslda ko‘ngillarimiz shodlikka, zavq-u shavqqa oshufta bo‘ladi. Bahor-bayramlar, shodiyonalar fasli.

1- boshlovchi: Yaqindagina 8-mart-Xalqaro xotin-qizlar kunini nishonlagan edik. Endi esa qadimiy va hamisha navqiron, ulug‘ ayyomimiz Navro‘zi olam eshik qoqmoqda. Navro‘zi olam muborak bo‘lsin!

2- boshlovchi:Har yil bahorda Navro‘z tantana qiladi. Bahordagi an‘analar, urf-odatlar xalqimizni hech qachon tark etmaydi, aksincha, Navro‘z sayli yil sayin takomillashib, sayqallashib, boyib boraveradi. Darvoqe, Navro‘z ko‘p ming yillik tarixga ega.

1- boshlovchi:Qani bo‘lmasa, Navro‘z tarixi bilan tanishaylik.

(Sahnaga bayramona libosdagi yettita o‘quvchi chiqishadi).

Bunyod:

Sharq xalqlarining azaliy va abadiy bayrami bo‘lgan Navro‘z to‘rt ming yillik tarixga ega. Navro‘zning kelib chiqishi va shakllanishiga oid qimmatbaho manbalar zardo‘shiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan “Avesto”, mashhur qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Yusuf Xos Xojib, Navoiy kabi mutafakkirlarimizning qimmatli ma‘lumotlarida Navro‘z muhabbat, do‘stlik, poklik, va insonparvarlik ramzi sifatida ulug‘lanadi.

Hulkar:

Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida keltirilishicha. Jamshid (qadimgi Eron shohlaridan biri) temir eritib, qurol yasashni, ip yigirib, kiyim tikishni, uy, hammomlar qurishni ixtiro qildi. So‘ng kishilarni o‘z qobiliyati, hunariga qarab guruhlarga ajratadi.

Nihoyat, bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi, bu farvardinning birinchi kuni edi. Hamma juda baxtiyor, shu kuni yangi yil boshi bo‘lib, an‘anaga aylanib qoladi. (“Farvariddin” pahlaviycha so‘z bo‘lib, u hamal burjiga oiddir, ya‘ni 21-martdan 22-aprelgacha bo‘lgan davrdir)

Surayyo:

Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida quyidagilarni yozgan. “U kunni “Navro‘z” deb atashining sababi Jamshid podshoh bo‘lgach, majusiylar dinini yangiladi va bu kun “Navro‘z” – “Yangi kun” deb ataldi”.

Suhrob:

Sharqning buyuk donishmandi, falakiyot bilimdoni Umar Hayyom o‘zining “Navro‘znoma” asarida “Navro‘z” so‘zi birinchi marta zardo‘shiylik dinining muqaddas kitobi (eramizdan avvalgi III-II asrlar) “Avesto”da tilga olinganligini qayd etadi. Navro‘z bayram sifatida tilga olingan “Avesto”da inson hayotining mazmuni uch ma‘noda mujassam topmog‘i lozimligi ham qayd etilgan. Bular – ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amallardir.

Ulug‘bek:

Navro‘z kunida bir soat bor. Shu soatda Feruz (baxt falagi) ruhlarni, maxluqotni yaratishga haydaydi. U kunning eng saodatli soatlari – quyosh soatlaridir. Uning tongida yorug‘lik imkoni boricha yerga yaqinlashadi. Odamlar unga qarashi bilan o‘zlarini baxtli sanaydilar.

Asaloy:

Biz ko‘hna tarix sahifalariga Navro‘zni izlab sayr etar ekanmiz, nigohimiz XII asrning mashhur tilshunos olimi M.Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” sahifalariga tushadi. Chunki jahonga mashhur bu asarida muallif Navro‘zni insonlar qalbidan joy olgan qo‘shiqlarini tahlil etadi.

Maftuna:

Tarix, zamonlar, asrlar guvohki, Navro‘z ezgulik, poklik, muhabbat timsoli sifatida ulug‘lanib, nishonlanib kelinmoqda. Hamisha shoirlar Navro‘zni madh etib keladilar.

Bejizga biz Navro‘zni milliy bayramimiz deya qadrlamaymiz. Chunki Navro‘z-biz bilan, xalqimiz bilan birga ming-ming yillarni yashab kelayotgan bayram. Unda buyuk ajdodlarimizning ulug‘ ruhlari bor.

(Birin-ketin davraga ulug‘ allomalar kirib keladi va o‘zlarining Navro‘z haqidagi she‘rlaridan parchalar aytadilar).

Hofiz Sheroziy:

Gul jamoli dilga yoqmas beginor,
Zavqi yo‘qdir bodasiz bo‘lsa bahor.
Bahراسi yo‘q bog‘-u bo‘ston sayrini,
Bo‘lmasa bir lola yuzli guluzor.

Umar Hayyom:

Gul chehrasida nasmi Navro‘z na go‘zal!
Kezganda chaman bo‘lsa dilafruz na go‘zal!
Shod bo‘lsang-u har lahza bugun zavqi bilan,
O‘tgan kundan hech ochmasang so‘z na go‘zal!

A.Navoiy:

Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar Navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yashil xilqat, mening sarvi ravonim ham.

Z.M.Bobur:

Yuзи Navro‘zi-yu vasl iydini Bobur g‘animat tut,
Ki mundin yaxshi bo‘lmas bo‘lsa yuz Navro‘z-u bayramlar.

Nodirabegim:

Ey mehri jamoli olamafruz,
Ayrjomi visoling – iydi Navro‘z.

Z.X.Furqat:

Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar,
Do‘stlar, g‘animatdur, sayr eting gulistonlar.
Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog‘di abri naysonlar!

A.Avloniy:

Bahor ayyomidir ayyom,

Demish shoir Umar Xayyom.

Ketur ey soqi, gulgun jom,

Bo‘lur hijron chunon bulbul.

(Allomalar sahnani asta-sekin tark etishadi), “Bahor vasli” kuyi yangraydi. Kichkinagina qizaloq o‘z o‘rtoqlari bilan ko‘m-ko‘k o‘tlar uzra chopib boychechak izlaydi. Nihoyat, boychechakni topadi. “Urey, mana boychechakni topdim. Yuringlar, qizlar, uni buvijonimga olib boramiz”. (Yugurishib sahnadan chiqib ketishadi).

1- boshlovchi: Taklif etilgan barcha mehmonlar kelib bo‘lishdi. Negadir Dono buvimiz biroz kechikishyapti. Endi nima qildik – a?

Balki biroz kutarmiz.

2- boshlovchi: Ana qarang, gapingiz og‘zingizda qoldi. 100 yoshli buvijonimiz kelyaptilar. Kelinglar, ularni olqishlar bilan kutib olaylik.

(Bolalar qarsak chalishadi).

1- boshlovchi: Assalomu alaykum, buvijon!

Buvi: Va alaykum assalom, bolajonlarim! Kechirasizlar. Nevaram Xolidaxon bilan bir bemor o‘rtog‘imning ahvolini so‘rab o‘taylik degan edik. O‘sha yerda biroz ushlanib qoldik. Kela-kela qabristonga kirib, o‘tgan ajdodlarimizning ruhini shod etish uchun fotiha ham o‘qib keldik. Voy o‘zim aylanay sizlardan!

Kelayotsak, hamma yoq top-toza, saranjom-sarishta, daraxtlar oqlangan, taglari yumshatilgan. Biram quvondim. Aytganday, Navro‘zingiz muborak bo‘lsin!

2- boshlovchi: Rahmat, buvijon, doimo bardam-baquvvat bo‘ling, yana uzoq yillar yashang, bizlar xizimatingizda bo‘laylik!

(Shu payt qo‘lida boychechak ushlagan qizcha yugurib kelib, boychechakni buvisiga tutadi).

Nasiba:

Buvijon, boychechakni topdim-u, siz tomonga yugurdim.

Buvi:

“Rahmat qizalog‘im. Mana, bahor boshlanibdi. Omonlik-somonlik, yanagi yilga ham yetaylik”, - deb duo qilibdi.

Bolajonim, endi sen ham o‘rtoqlaring bilan o‘tirib, bayramni tomosha qilinglar.

1- boshlovchi: Bugungi bayramingizga Bahoroy, Navro‘zjon, Dehqonbobo va Cho‘ponbobolar ham mehmon bo‘lib kelishgan.

(Shu payt mayin kuy ohanglari ostida sahnaga Bahoroy va Navro‘zjon kirib kelishadi)

Bahoroy:

Mana, men go‘zal bahor,

Yetib keldim sizlarga.

Jon kiritdim daraxtlarga,

G‘unchalar ildizlarga.

Oppoq o‘rik gullarim bilan,

Iliq quyosh nurlarim bilan.

Yashillanib, dam olovlanib,

Kamalakdek ming xil tovlanib,
Mehmon bo‘lib keldimsizlarga.

Navro‘zjon:

Assalomu alaykum, beg‘ubor qalblari o‘yin-kulgiga, qo‘shig‘-u raqsga, san‘atga ixlosmand, qadrli yoshlar! Mana, o‘lkamizda so‘lim bahor. Hamma yerda go‘zallik, yangilanish, yasharish. Yurtimizning har bir go‘shasida, mahallalarda bayram shodiyonalari.

Menimcha, bugundan boshlab, dehqonchilik ishlari ham boshlansa kerak-a?

2- boshlovchi: Ha, albatta. Bugun davramizga Dehqonbobo ham mehmon bo‘lib kelganlar. Bugun dehqonbobo dalaga chiqib, ilk marta yerga ketmon urmoqchi. Marhamat, Dehqonbobo, dala ishlarini boshlab bersangiz.

Dehqonbobo:

Bismillohir rohmanir rohim!
Eshi yil ketdi,
Yangi yil keldi.
Doshqozonlar tizilsin,
Sumalaklar suzilsin!
Bug‘doy pishib chosh bo‘lsin!
Rizq-u, ro‘zimiz tog‘ bo‘lsin!
Omin, Ollohu akbar!

(Dehqonbobo dalaga ketmon urib, urug‘ sochadi).

1- boshlovchi: Marhamat, do‘stlar, navbat Navro‘z qo‘shiqlariga!

Nodira:

Dehqon dala aylandi,
Ho‘kiz shoxi moylandi.
Omoch, mola, cho‘nqa tish.
Dehqonbobo shaylandi.
Um uf, jaqala, um uf, jaqala.

Mardona:

Arpa-bug‘doy sepilsin,
Maysa unib yetilsin,
Dehqon ishi o‘ng kelsin,
Omborlarga don to‘lsin.
Yangi yil qutli bo‘lsin,
Qozonlar sutli bo‘lsin.
Um uf, jaqala, um uf, jaqala

Farida:

Bugun bayram – yilboshi,
Yilboshiga el oshi.
Har ro‘zg‘orning himmati.
Palovmi yo sut oshi,
Um uf, jaqala, um uf, jaqala.

Suhrob:

Qattiq oshi, sut oshi,

Qo'noq bo'tqa, so'k oshi.
Shovla pishgan ilikday
Kichirining zo'r moshi
Um uf, jaqala, um uf, jaqala.

Bunyod:

Ochligimiz yo'q bo'lsin,
Momo, qorin to'q bo'lsin,
Rizqimiz butun bo'lsin,
Umrimiz uzun bo'lsin.
Um uf, jaqala, um uf, jaqala.

Ulug'bek:

Tog'da bulbul sayraydi,
Tol bag'rini chaynaydi.
Shu ukamdan so'rsangiz,
Qo'zichoqday sakraydi.
Um uf, jaqala, um uf, jaqala.

Ulug'bek:

Omad bizga jo'r bo'lsin,
Noz-u ne'mat ko'p bo'lsin.
Baxtimizga tinch zamon,
Davru davron zo'r bo'lsin-
Um uf, jaqala, um uf, jaqala.

Bunyod:

Gul lolalar ochilsin,
El-u yurtga sochilsin.
Doim tinch zamon bo'lsin,
El-u yurt omon bo'lsin.
Um uf, jaqala, um uf, jaqala.

2- boshlovchi: Bugungi davramizda Cho'pon bobo ham mehmon bo'lib turibdilar, endi u kishidan tilaklarini eshitamiz.

Cho'pon bobo:

Yangi yilimiz barakali yil bo'lsin-u qo'zilarimiz faqat egiz qo'zilasiz.

1- boshlovchi: Rahmat, bobojon, yaxshi tilaklaringiz uchun. Azizlar, Navro'zning o'z an'analari, urf-odatlar bor. Navro'z urf-odatlariga rioya qilgan kishi kam bo'lmaydi. Qani, kim qanday Navro'z urf-odatlarini biladi?

Madina:

Navro'zga tayyorgarlik ko'radilar. Hovli, uylarni tozalaydilar.

Suhrob:

Navro'zga qadar daraxt tanalarini oqlaydilar.

Ulug'bek:

Navro'zga qadar bog'lardagi xazonlarini yig'ib, yoqadilar.

Maftuna:

Navro'zda bug'doy undirib, sumalak pishiradilar.

Mardona:

Navro'zda yangi kiyim-bosh kiyishadilar.

Bunyod:

Navroʻzda qiz-javonlarga yangi kiyim-kechak olib berib, ularni xursand qiladilar.

Maftuna:

Navroʻzda ot choptirishga tadorik koʻrishadi.

Suhrob:

Navroʻzda gʻamgin oʻtirmaydilar.

Nodira:

Navroʻzda Navroʻz taomlari pishirishadi.

Nazira:

Navroʻz kuni hovlilarda chalgʻi yasaydilar.

Bunyod:

Navroʻzda qiz tanlagani chiqadilar.

Hulkar:

Navroʻzda araz-ginalarni unutadilar.

Zubayda:

Navroʻzda qarindoshlarnikiga mehmonga boradilar.

Ulugʻbek:

Navroʻzda soʻkinmaydilar.

Nodira:

Navroʻzda nishonali qizga Navroʻz haydasini eltadilar.

Zarnigor:

Navroʻz oqshomi qargʻanmaydilar.

Suhrob:

Navroʻz kuni ota-ona qabrini ziyorat qiladilar.

Bunyod:

Navroʻz kuni otni, itni urmaydilar.

Hulkar:

Navroʻzda gʻiybat qilmaydilar.

Ulugʻbek:

Navroʻz kuni ilonni oʻldirmaydilar.

Zubayda:

Navroʻz kuni barra yalpiz teradilar.

Farida:

Navroʻz kuni qizil rangli kiyimlarni kiyishadi.

Asaloy :

Navroʻz kuni bemorlarga bayram taomlari joʻnatiladi.

1- boshlovchi: Rahmat, bolalar, mana, javoblaringizdan bildikki, sizlar Navroʻz urf-odatlarini yaxshi oʻrganib olibsizlar. Ularga amal qilsangiz, nur ustiga bur boʻlardi.

2- boshlovchi: Endi sizlarning eʼtiborlaringizga oʻzbek milliy raqsi “Lazgi”ni qizlarmiz ijrosida havola etamiz.

1- boshlovchi: Xalqimiz orasida Navroʻz haqida juda koʻp afsonalar yaratilgan. Ular haqida nimalar deya olasizlar?

Maftuna: Men hozir sizlarga “Jamshid mo‘jiza yaratgan kun” afsonasini aytib beraman.

Jamshid podshoh bo‘lgach, majusiylar dinini yangiladi va bu ish qilingan kunni Navro‘z ya‘ni yangi kun deb ataydi. Bu kun garchi Jamshiddan oldin ham hurmat qilingan bo‘lsa-da, hayitga aylantirilmagan edi.

Navro‘zni hayit qilish to‘g‘risida bunday ham deyilgan. Jamshid o‘ziga arava yasattirib olgach, o‘sha kuni aravaga chiqdi. Jinlar va shaytonlar uni havoga ko‘tarib, bir kunda Dunbovanddan Bobilga olib bordilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko‘rgach, o‘sha kunni hayit qildilar va Jamshidning aravada uchishiga taqlid qilib, arg‘umchoqlarda uchdilar.

(Qizlar arg‘umchoqda uchib, “Halinchak” ashulasini aytishadi).

Hulkar:

Men “Sulaymonning uzugi” afsonasini so‘zlab beraman.

Sulaymon ibn Dovud o‘zining sehrli uzugini yo‘qotib qo‘yibdi. Taxti poyi qo‘lidan ketgan podsho ko‘p xafa bo‘lib, aziyat chekibdi. Ammo oradan 40 kun o‘tgach, uning uzugi topilib, avvalgi ravnaqi yana o‘ziga qaytib kelibdi. O‘sha kuni olamdagi barcha xonlar, jonivorlar-u qushlar, devlar-u ajdarholar Sulaymonning yoniga bosh egib kelibdilar. Buni ko‘rgan eronliklar: “Navro‘z omaded, ya‘ni yangi kun keldi”, - deyishibdi. Shu-shu o‘sha kun Navro‘z deb ataladigan bo‘libdi.

Sehrli uzugi topilgach, Sulaymon shamolga buyuribdi. Shamol uni taxti bilan ko‘tarib, uchurib ketayotgan ekan, bir qaldirg‘ochning uyasiga duch kelib qolibdi.

Shunda qaldirg‘och: “Ey podshoh, uyimda bir necha tuxumim bor edi. Ularga ozor berma”, - debdi.

Shunda Sulaymon qaldirg‘ochning uyasini chetlab o‘tib, bir xushmanzara joyga borib qolibdi. Shu payt haligi qaldirg‘och og‘zida suv olib kelibdi va Sulaymonga chigirtkaning oyog‘ini hadya qilibdi.

Navro‘z kuni suv sepib, sovg‘alar berish udumi ana shundan qolgan ekan.

(O‘quvchilar “Olov kashf etilgan kun”, “Jamshidning taxti” kabi Navro‘z bayrami bilan bog‘liq afsonalarni ham so‘zlab berishadi).

1- boshlovchi:Endi yigitlarimiz ijrosida o‘zbek shoiri Muhammad Yusuf so‘zi bilan aytiladigan “Navro‘z” ashulasini tinglaymiz. Marhamat, tinglang.

Navro‘zda Navro‘zni ko‘ming deyishdi,
Ko‘ming va sukutga cho‘ming, deyishdi.
Eskilik sarqiti asli bu sayil,
Ey bandayi mo‘min deyishdi.

Mo‘minlarning boshi egildi yerga,
G‘alat qirg‘inbarot boshlandi, do‘stim.

Go‘daklar jang qildi, oqsoqollar jim,
Shaxsan men bir yilda o‘n yilga o‘sdim.

Birov demadiki, ey gulira‘no,
Navro‘zlarsiz axir senda ne ma‘no?
Xushomad yog‘ildi iblis iziga
Shaytonga o‘qildi ming hamdu sano.

Xo‘sh, keyin ne bo‘ldi, dersiz keyin-chi?
Mo‘tabar sahnadan tushdi “o‘yinch”,
Qayga g‘oyib bo‘ldi, xudo biladi,
O‘sha xudosizni izlab ko‘ringchi.

Joningdan aylanay, Navro‘z, kel endi,
Qirq yil qirg‘indan ham omon qolganim.
Men seni hech kimga bermayman endi,
Yalmo‘giz qo‘ynidan tortib olganim.

2- boshlovchi: Xalq maqollarida ham Navro‘z ulug‘langan. Sizlar Navro‘z haqida qanday maqollarni bilasizlar?

Nodira:

Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas,
Mezondang so‘ng yoz bo‘lmas.

Bunyod:

Hut kirdi, yer ostiga dud kirdi.

Ulug‘bek:

Ulus kuni baraka bersin,
Yomonlik yerga kirsin.

Suhrob:

Hamal yig‘loq-savr yig‘loq.
("Andijon polkasi" raqsii ijro etiladi).

1- boshlovchi: Bizning elda bu ayyom,

Sumalaksiz o‘tmaydi.

Yalpiz, somsa yopmasdan,

Aziz mehmon kutmaydi.

Ha, azizlar, Navro‘zni halim, halisa, go‘ja va sumalaksiz tasavvur eta olmaymiz. Endi Aziz mehmonimiz Dono buvidan sumalak tayyorlash haqidagi fikrlarni eshitsak.

(Dono buvi sumalakning tayyorlashnishi haqidagi tajribalarini gapirib beradilar).

2- boshlovchi: Rahmat, Dono buvi! Sizdan sumalak tayyorlashni bilib oldik. Qani, bolalar, sizlar sumalak va uni tayyorlanishi haqida qanday fikrlar bilasizlar?

Bunyod:

Sumalak bug'doyi undurilayotgan uyga begona kishi kiritilmaydi, tahorat qilib poklangan, ko'ngli toza odam bug'doy undurilayotgan uyga: "Bismillohir rohmanir rohim",-deb kirib, maysaga suv sepadi.

Hulkar:

Bug'doy maysasini odamlar ko'zlariga surtadilar.

Ulug'bek:

Sumalak pishiriladigan kuni hamma ohorlik kiyim kiyadi. Yangi kiyimi bo'lmagan kishi barmog'iga ohorli mato bo'lagini bog'lab qo'ysa ham savob bo'ladi deyishadi.

Bunyod:

Sumalak pisiriladigan kuni otinoyilar avval qur'on o'qib, o'choq atrofiga chiroq yoqadilar, arvohlarga is chiqaradilar.

Mardona:

Sumalak sharbatini qozonga solishdan avval doshqozondagi yog' qizdiriladi va tuzsiz xamirdan bog'irsoq pishirib, is chiqariladi.

Zubayda:

Doshqozon tagiga o'tin qalayotgan ayol ko'nglida nima niyati bo'lsa, sumalak oldida aytsa, orzusi amalga osharmish.

Nodira:

Nopok odamlar sumalak qozon atrofiga yaqinlashtirilmaydi. Ular tahoratsiz qozonga yaqinlashsalar, qozon toshadi.

Maftuna:

Farzandtalab ayol sumalak pishirilayotgan qazon atrofini uch marta aylanib, niyatini aytsalar, murodlari hosil bo'ladi.

Mardona:

Sumalak tarqatilgandan keyin yaxshi niyat qilgan ayol doshqozonni yuvadi. So'ngra duo o'qib, qozon ichidagi suvni biror mevali daraxt tagiga to'kadi.

1- boshlovchi: Rahmat, bolalar!

Hamamizga ma'lumki, o'zbek xalqi qadim-qadimdan o'yin-kulgiga o'ch. Navro'zni o'yin-kulgisiz tasavvur etish qiyin. Navbat, Navro'z qo'shiqlariga.

("Boychechak", "Kim oladi-ya", "Sust xotin", "Sumalakjon, sumalak" kabi ashula va raqslar ijro etiladi).

2- boshlovchi: Navro'zni milliy o'yinlarsiz ham tasavvur etish qiyin. "Kurash", "Xo'roz va qo'chqor uyushtirish", "Ko'pkari", "Ahug", "Do'ppi tushurdi", "Tuxum yorar", "Varrak uchurish" kabi milliy o'yinlarimiz mavjud. Hozir sizlarni "Arqon tortish" o'yiniga taklif etamiz. Yigitlarimiz ikki guruhga bo'linib, arqon tortishadi.

1- boshlovchi: Odatingni tark etma, Navro'z,

Yangi yilim – bahorim bahor.

Ta'rifingga topilgaymi so'z,

Hur diyorim, mangu iftixor!

2- boshlovchi: Baxtimizga Navro'z bor bo'lsin,

Katta-kichik baxtiyor bo'lsin.

Omon bo'lsin, el-u yurt omon,

Omon bo'lsin turguncha zamon!

1- boshlovchi: Xalqim, bayramlardan chiqmasin boshing,

Ushbu kun farqlay bil, yaxshi-yomonni.

Ogohlik doimo bo'lsin yo'ldoshing,

Ko'kka ko'taraylik O'zbekistonni.

El-u yurtim, Navro'zday uzaysin yoshing,

Mangu porlayversin hurlik quyoshing!

2- boshlovchi: Shuning bilan Navro'z bayramiga bag'ishlangan "Odatingni tark etma, Navro'z!" deb nomlangan tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi.

E'tiboringiz uchun rahmat!

Doim bo'ling salomat!